

SHAHAR YO‘LLARINING HARAKAT YO‘NALISHIDA AVTOBUSLARNING HARAKAT XAVFSIZLIGIGA TA‘SIRINI BAHOLASH

Umirov Ilhom Iskandar o‘g‘li

Jizzax Politexnika instituti TVM kafedrası v.b.dotsenti

Islamov Jamshid Baxriddin o‘g‘li

Jizzax Politexnika instituti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada, hozirgi kunda avtomobil sanoatining rivojlanganligi hamda shahar yo‘llarining harakat yo‘nalishida avtobuslarning harakat xavfsizligiga ta‘sirini baholash haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: *avtomobil, shahar, jamoat transporti, Jizzax, svetofor, imtiyozli harakatlanish.*

ANNOTATION

This article provides information on the current development of the automobile industry and the assessment of the impact of buses on the traffic safety of city roads.

Key words: *automobile, city, public transport, Jizzakh, traffic light, preferential traffic.*

Hozirgi vaqtda dunyoning deyarli barcha yirik shaharlarida avtomobillar soni kundan-kunga jadal sur‘atlarda ortib bormoqda. Bunday holatni O‘zbekiston Respublikasida ham kuzatishimiz mumkin. O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan keyin mamlakat iqtisodiyoti salohiyatini oshirish maqsadida avtomobil sanoatini rivojlantirish borasida keng yo‘lga qadam qo‘yildi.

Avtomobillashtirish jamiyatning iqtisodiy yuksalishiga ijobiy ta‘sir qilish bilan birgalikda, bir qancha salbiy oqibatlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lmoqda desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Avtomobillashtirishning salbiy oqibatlari natijasida ko‘plab yo‘l-transport hodisalariga duch kelmoqdamiz. Bu esa bir qancha kishilarning halok bo‘lishlari yoki tan jarohatlari olishlari, shuningdek, yo‘l-transport hodisalari natijasida ko‘plab yetkazilayotgan moddiy zararlar, shahar ko‘chalari, aholi yashaydigan joylardan o‘tadigan yo‘llar mintaqasidagi yuqori darajadagi shovqin, ko‘chalarning to‘xtab turuvchi avtomobillar tomonidan to‘siq qo‘yilishlari va nihoyat, birinchi navbatda shahar yo‘lovchi transportlarining harakatlanishiga ham o‘zining salbiy

ta'sirini ko'rsatmoqda¹. Masalan, Jizzax shahrini oladigan bo'lsak, aralash transport oqimida harakatlanayotgan jamoat transporti uchun maxsus bo'laklar yoki svetofor obyektida imtiyozli harakatlanish yo'qligi ularning bir maromda ishlashiga to'sqinlik qilmoqda. Uning natijasida transport vositalarining ushlanib qolishlari bilan birgalikda yo'lovchi transportlarining harakatlanish tezliklari pasayib ketishiga olib kelmoqda.

Shahar yo'lovchi transportlarining imtiyozli harakatlanishini rivojlantirish va aholiga ko'rsatilayotgan transport xizmati sifatini oshirish borasida bir qator hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar bor.

Jizzax shahrining avtomobillar va jamoat transportlari harakatlanadigan eng qatnov ko'chalaridan biri Sh.Rashidov ko'chasi hisoblanadi. Ko'chani umumiy kengligi 22 metr bo'lib, 3 bo'lakli qilib belgilangan va har bir bo'lakning kengligi 3,5 metrdan qilib olingan. Yo'nalishlar bo'yicha qatnov qismlari 10,5 metrdan belgilangandir.

Shahrimizning markaziy ko'chalaridan yana biri Mustaqillik ko'chasi hisoblanadi. Ushbu ko'chada avtomobillar harakati ancha tig'izdir. Ko'chani umumiy kengligi esa 22 metrni tashkil etadi. Yo'nalish bo'yicha qatnov qismining kengligi 11 metr hamda 3 bo'lakli qilib ajratilgan. Bo'lakning kengligi 3,5 metr qilib belgilab olingan.

Shahar joylarda qatnovchi avtobuslar tuzilishi yo'lovchilarning o'tirib va turib ketishiga hamda tushishiga, tez-tez to'xtab, katta tezlanish bilan harakatlanishiga moslangan bo'lishi lozimdir. Shahar ichi yo'nalishlarida qatnovchi yo'lovchilar o'rtacha qatnov masofasi nisbatan kichik va sutka davomida yo'lovchilar oqimining o'zgaruvchan bo'lishi shahar ichi avtobuslarining kuzov saloni rejasi kam o'rindiqli, o'tish joylari, avtobusning old va orqa tomonida turib ketishga mo'ljallangan sath (maydoncha) keng bo'lishini taqozo etadi. Xulosa qilib aytganda, salonni aytilgandek, rejalashtirish bilan yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifatini deyarli kamaytirmagan holda avtobus sig'imini oshirishga erishiladi. Chiqish va tushish uchun eshiklari keng bo'lishi, yo'lovchilarning chiqish va tushish uchun zarur bo'lgan to'xtab turish vaqtini kamaytirish hisobiga avtobuslar ish unumini oshira oladi.

¹ Umirov, I., Turushev, S., & Ravshanov, F. (2021). Йўл бўлакларининг ҳаракатланиш хавфсизлигига таъсирини таҳлил қилиш. *Academic research in educational sciences*, 2(2).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Q.X.Azizov. Harakat xavfsizligini tashkil etish asoslari. – T.: “Fan va texnologiya”, 2009. - 244 bet.
2. Abduraxmanov R.A., Azizov S.Z. Shahar yo‘lovchi transportlarining imtiyozli harakatlanishini tadqiq qilish (Jizzax shahri misolida) // TAYI “O‘zbekiston avtomobil-yo‘l kompleksining dolzarb vazifalari” Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami II-qism. Jizzax-2008, 165-166 bet.
3. Umirov, I., Turushev, S., & Ravshanov, F. (2021). Йўл бўлакларининг ҳаракатланиш хавфсизлигига таъсирини таҳлил қилиш. *Academic research in educational sciences*, 2(2).
4. O‘G‘Li, U. I. I., & O‘G‘Li, S. A. I. (2022). Tirbandlik kuzatilayotgan shahar ko‘chalarida transport oqimining asosiy tavsiflarini o‘rganish. *Механика и технология, (Спецвыпуск 2)*, 177-188.
5. Ilkhom, U., & Shokhzod, S. (2022). STUDYING THE EXPERIENCE OF INTERNATIONAL TRAFFIC SAFETY MANAGEMENT. *Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences*, 1(4), 83-89.
6. O‘G‘Li, U. I. I., & Mansurovna, M. L. (2022). Avtobuslar harakatlanishi yo‘nalishlarida transport oqimining harakatlanish zichligiga ta’siri. *Механика и технология*, 3(8), 132-139.
7. O‘G‘Li, U. I. I. (2022). Avtobus va mikroavtobus yo‘nalishlarida harakat miqdori va tarkibini tadqiq qilish. *Механика и технология*, 2(7), 108-113.